

**1.** Tirik organizmlarning Yer yuzida tarqalishini qaysi fan o'rganadi?

- A) Geomorfologiya
- B) Gidrologiya
- C) Geokriologiya
- D) Biogeografiya

**2.** Qanday shartli belgilar yordamida qum cho'llari egallagan maydonni, muz qoplagan yerlar maydonini bilish mumkin?

- A) maxsus shartli belgilar
- B) masshtabli shartli belgilar
- C) masshtabsiz shartli belgilar
- D) alohida shartli belgilar

**3.** Tabiiy-antropogen landshaftni toping.

- A) qalin o'rmonzor
- B) yaylov
- C) shahar
- D) cho'l

**4. Matnni o'qing.**

"Aholi materikda juda notekis o'mashgan. Aholining ko'chligi okeanlar sohillarida, ya'ni kelgindilar ko'chib kelgan yerlarda yashaydi. Materikning keng ichki tekisliklarida aholi siyrak o'rnashgan".

**Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi materikka oid ekanligini toping.**

- A) Afrika
- B) Shimoliy Amerika
- C) Janubiy Amerika
- D) Avstraliya

**5.** Ueddell dengizi qaysi okeanda joylashgan?

- A) Tinch
- B) Atlantika
- C) Hind
- D) Shimoliy Muz

**6. Matnni o'qing.**

Ushbu okeanda tog' tizmalari, cho'kmalar, tekisliklar, botiqlar ko'p tarqalgan. Okeanda minglab kilometr masofaga cho'zilib yotgan eng chuqur cho'kmalar ham bor. Okean shelfida daryo va to'lqin yotqiziqlari, organik jinslar, okean tubida qizil gilli jinslar eng ko'p tarqalgan. **Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi okeanga oid ekanligini aniqlang.**

- A) Atlantika
- B) Shimoliy Muz
- C) Hind
- D) Tinch

**7.** Braziliya yassitog'ligining janubiy qismi qaysi iqlim mintaqasida joylashgan?

- A) tropik
- B) subekvatorial
- C) subtropik
- D) mo'tadil

**8. Matnni o'qing.**

"Materikdagi tog'lar kaledon, gersin, mezozoy tog' burmalanishlarida ko'tarilgan. Lekin alp burmalanishida yoshargan. Tekisliklarda, asosan, cho'kindi tog' jinslari uchrasa, tog'li o'lkalarda magmatik va metamorfik tog' jinslari tarkib topgan. G'arbiy tog'li mintaqada halokatli zilzilalar bo'lib, vulqonlar otilib turadi".

**Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi materikka oid ekanligini toping.**

- A) Janubiy Amerika
- B) Afrika
- C) Yevrosiyo
- D) Shimoliy Amerika

**9.** Fransiya hududida qaysi tabiat zonasini tarkib topgan?

- A) aralash va keng bargli o'rmonlar
- B) o'rmon-dasht va dasht
- C) fasliy nam o'rmonlar
- D) tayga

**10.** Yevrosiyo materigiga oid to'g'ri ma'lumotlar berilgan javobni toping.

- A) Aholining joylashishi, avvalo, materikka aholining ko'chib kelishi tarixiga va tabiiy sharoitga bo'g'liq. Materikning janubiy yarmida aholi eng ko'p o'rnashgan.
- B) Aholisi juda notekis joylashgan. Aholining joylashishiga birinchi navbatda tabiiy sharoit ta'sir etgan bo'lsa, keyingi navbatda tarixiy sabablar ta'sir ko'rsatgan.
- C) Aholining ko'p qismi materikning yashash uchun qulay bo'lgan sharqiy, janubi-sharqiy va janubi-g'arbiy chekkalarida to'plangan.
- D) Materik aholining zichligi va o'sishi bo'yicha boshqa materiklarga nisbatan oldinda turadi. Materikda asosan, yevropeoid va mongoloid irqlariga mansub bo'lgan aholi yashaydi.

**11.** O'rta Osiyoda qaysi erada burmalanish kuchsiz bo'lgan?

- A) arxey
- B) paleozoy
- C) mezozoy
- D) proterozoy

**12. Matnni o'qing.**

"Okrugning markaziy qismidagi sho'rxok yerlarda pashmak, baliqko'z, seta, sho'ra, yulg'un, qumli yerlarida esa juzz'un,

quyonsuyak, saksovul o'sadi. Adirlarda bahorda rang, qo'ng'irbosh, shaytonkavush o'sadi, ular yozda qurib qoladi, so'ngra oq kavrak, oq shuvoq, qizil bурган, chalov o'sishni davom ettiradi".

**Matndagi ma'lumotlar qaysi okrugga tegishli ekanligini toping.**

- A) Mirzacho'l
- B) O'rta Zarafshon
- C) Farg'ona
- D) Qashqadaryo

**13.** "Okrug turli tomondan tog'lar bilan o'ralganligi tufayli shimoldan, shimoli sharqdan esuvchi sovuq va g'arbdan esuvchi nam havo massalarining bevosita o'tishiga to'siq bo'ladi. Shu sababli uning iqlimi issiq, quruq, davomli yoz hamda mo'tadir qish bilan tavsiflanadi".

Ushbu ta'rif qaysi tabiiy geografik okrugga tegishli?

- A) Surxondaryo
- B) Farg'ona
- C) Qashqadaryo
- D) Chirchiq-Ohangaron

**14.** O'zbekistonning qaysi hududlarida sho'rxok va sho'r tuproqlar tarqalgan?

- A) Ustyurt platosi, Qizilqumdag'i past tog'lar, Nurota tog' etaklari
- B) Mirzacho'l, Markaziy Farg'ona, Qarshi cho'llari
- C) Quyi Amudaryo, Qizilqumdag'i past tog'lar, Nurota tog' etaklari
- D) Qizilqum, Mirzacho'l, Markaziy Farg'ona

**15.** O'rta Zarafshon tabiiy geografik okrugiga oid ma'lumotlar berilgan javobni toping.

- A) Okrugda yog'inlar notejis taqsimlangan. Okrugning janubidagi tekisliklarga eng kam yog'in (yiliga 133—230 mm) tushadi. Lekin tog' yonbag'irlari bo'ylab ko'tarilgach, yog'in miqdori ortib, 500—600 mm ga yetadi. Yillik yog'inning ko'p qismi qishda (46—48 foiz) va bahorda (43—44 foiz) yog'adi. Kuz oylariga yillik yog'inning 8—10 foizi, yozga esa atigi 1—2 foizi to'g'ri keladi.
- B) Okrugda sovuq bo'lmaydigan davr 204—214 kun davom etib, vegetatsiya davridagi haroratlar yig'indisi 5000°C ga yetadi. Bunday iqlimi sharoitda ingichka tolali paxta, shirin-shakar mevalar, poliz ekinlarini yetishtirish mumkin. Okrugda yog'inlar hudud va fasllar bo'yicha notejis taqsimlangan.
- C) Okrug tekislik qismining atroflaridagi nisbatan baland joylarda och bo'z tuproq keng tarqalgan. Adirlarda esa oddiy va to'q bo'z

tuproqlar uchraydi. Bu tuproq turlari 1200 m gacha bo'lgan baland joylarda tarqalgan. Ular tarkibida chirindi miqdori 1,5—2,5 foizga boradi. 1200—2500 m balandliklarda tog'-jigarrang va tog'-qo'ng'ir tuproqlar tarqalgan.

D) Okrug iqlimi O'zbekiston tekislik qismidagiga o'xhash bo'lib, qishi sovuq, yozi issiq va quruq, yog'in kam. Okrug janubda joylashganligidan hamda shimol, shimoli sharqdan tog'lar bilan o'ralganligidan qishda havo haddan tashqari sovib ketmaydi. Yanvarning o'tacha harorati  $-0,9 - 1,9^{\circ}\text{C}$ . Ba'zan Arktika havosi kirib kelganda eng past harorat  $-24 - 35^{\circ}\text{C}$  gacha pasayadi.

**16.** Bog'dorchilik, uzumchilik va polizchilikda qo'llaniladigan mashina va moslamalar qaysi birlashmada ishlab chiqariladi?

- A) «Toshqishloqmash»
- B) «O'rta Osiyoqishloqmash»
- C) «O'zbekqishloqmash»
- D) «Chirchiqqishloqmash»

**17.** Iqtisodiy rayon xo'jaligining asosini qishloq xo'jaligi tashkil etadi. O'zbekistondagi qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning 6 foizi shu rayon hissasiga to'g'ri keladi". Ushbu ta'rif mamlakatimizdagi qaysi iqtisodiy rayonga tegishli?

- A) Janubiy
- B) Quyi Amudaryo
- C) Zarafshon
- D) Mirzacho'l

**18.** Minas-Jerays va Karajas temir rudasi konlari qaysi mamlakat hududida joylashgan?

- A) Braziliya
- B) Argentina
- C) AQSH
- D) Avstraliya

**19.** Jahonda suyultirilgan tabiiy gazni eksport qilishda qaysi davlat yetakchi hisoblanadi?

- A) Eron
- B) Qatar
- C) AQSH
- D) Kanada

**20.** Mashinasozlikning qaysi mintaqasi ommaviy mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan?

- A) Shimoliy Amerika
- B) G'arbiy Yevropa
- C) Sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyo
- D) MDH davlatlari

**21.** Mo‘g‘uliston Osiyoning qaysi subregioni tarkibiga kiradi?

- A) Markaziy Osiyo
- B) Sharqiy Osiyo
- C) Janubiy Osiyo
- D) Janubi-sharqiy Osiyo

**22. Matnni o‘qing.**

“Qishloq xo‘jaligining tayanch tarmoqlari sutg‘osht qoramolchiligi va cho‘chqachilik hisoblanadi. Mamlakatning shimoliy va markaziy qismlarida asosiy qishloq xo‘jalik ekinlari bug‘doy, arpa, makkajo‘xori, kartoshka, qandlavlagi hisoblanadi. Janubdag‘i tog‘ yonbag‘irlari va tog‘ oralig‘idagi vodiylarida uzum, tamaki yetishtirish yaxshi rivojlangan”. **Matndagi ma’lumotlar qaysi mamlakatga tegishli ekanligini toping.**

- A) Germaniya
- B) Italiya
- C) Buyuk Britaniya
- D) Fransiya

**23. Matnni o‘qing.**

“Plantatsiya xo‘jaligining rivojlanishi bo‘yicha katta tajribaga ega bo‘lgan subregion davlatlari, asosan, texnik ekinlar yetishtirishga ixtisoslashgan. Qishloq xo‘jaligida yetishtiriladigan monokultura ekinlarining asosiy qismi eksportga yo‘naltiriladi. Konchilik sanoati asosiy rivojlangan sanoat tarmog‘i hisoblanadi. Asosan, temir va uran rudalari, boksit, qalay, neft, olmos, oltin qazib olinadi”. **Matnda berilgan ma’lumotlar qaysi subregionga oid ekanligini toping.**

- A) G’arbiy Afrika
- B) Janubiy Afrika
- C) Sharqiy Afrika
- D) Shimoliy Afrika

**24. Tojikiston qishloq xo‘jaligiga oid to‘g‘ri ma’lumotlar berilgan javobni toping.**

- A) Asosiy qishloq xo‘jalik ekinlari qatoriga bug‘doy, paxta, kartoshka, sabzavot, kungaboqar, tamaki kiradi. Dehqonchilik vodiylarda rivojlangan. Tog‘lari serhosil yaylovarga boy bo‘lganligi tufayli respublikada chorvachilikning qo‘ychilik, echkichilik, qoramolchilik, yilqichilik singari tarmoqlari yaxshi rivojlangan.
- B) Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari donchilik, paxtachilik, uzumchilik, qorako‘chilik, yilqichilik hisoblanadi. Axalteki zotli otlari butun dunyoga mashhur bo‘lib, hattoki davlat gerbida ham axalteki oti tasvirlangan.

C) Dehqonchilikning asosiy tarmoqlari donchilik, paxtachilik, bog‘dorchilik va uzumchilik hisoblanadi. Paxta va turli mevalar respublikaning muhim eksportbop mahsulotlari hisoblanadi. Sug‘orma dehqonchiligi tog‘ oralig‘idagi vodiylarida yaxshi rivojlangan. Tog‘-yaylov chorvachiligi qoramolchilik va qo‘ychilikka ixtisoslashgan.

- D) Dehqonchilikning bosh tarmog‘i donchilik. U, ayniqsa shimoliy viloyatlaridagi lalmi yerlarda yaxshi rivojlangan. Janubiy viloyatlarda dehqonchilik sug‘orish yordamida rivojlantirilib, bu yerda uning asosiy tarmoqlari sabzavotchilik, sholichilik, polizchilik hisoblanadi.

**25. Aholini o‘rab turgan tabiiy va texnogen muhitni qamrab olgan yashash va mehnat qilish sharoitiga nima deyiladi?**

- A) geografik muhit
- B) tabiiy muhit
- C) texnogen muhit
- D) atrof-muhit

**26. Islom dinining shialik yo‘nalishi keng tarqalgan davlatni toping.**

- A) Pokiston
- B) Iordaniya
- C) Suriya
- D) Iraq

**27. Qaysi mintaqalarda erkaklar va ayollar soni deyarli bir-biriga teng?**


- 1) Shimoliy Amerika; 2) Afrika; 3) Osiyo; 4) Avstraliya va Okeaniya; 5) Yevropa; 6) Janubiy Amerika.

- A) 2, 3, 5
- B) 1, 4, 6
- C) 1, 3, 5
- D) 2, 4, 6

**28. Quyidagi qaysi mintaqada urbanizatsiya darajasi eng past ko‘rsatkichga ega?**


- A) Lotin Amerikasi
- B) Afrika
- C) Osiyo
- D) Avstraliya va Okeaniya

**29. Ushbu yozuv siz xaritada Ueddell va Amundsen dengizlari qaysi raqamlar bilan tasvirlangan?**



- A) 1, 4  
B) 2, 3  
C) 1, 3  
D) 2, 4

**30.** Ushbu yozuvsiz xaritada 1 va 3 raqamlar bilan Avstraliyaning qaysi iqlim mintaqalari egallagan hududlar tasvirlangan?



- A) subtropik va mo'tadil  
B) tropik va subtropik  
C) subekvatorial va subtropik  
D) tropik va mo'tadil

**31.** O'rta Osiyoning yozuvsiz xaritasida Balqash va Alako'l ko'llari qaysi raqamlar bilan tasvirlangan?



- A) 2, 4  
B) 2, 3  
C) 1, 3  
D) 1, 4

**32.** Ushbu yozuvsiz xaritada 1 va 2 raqamlar bilan qaysi tog'lar tasvirlangan?



- A) Bo'kantov va Quljuqtov  
B) Jetimtov va Qozoqtov  
C) Tomditov va Ovminzatov  
D) Jetimtov va Quljuqtov

**33.** Quyidagi jadvalda viloyatlar va ularning maydoni mos ravishda to'g'ri berilgan javobni belgilang.

Nº	Viloyatlar	Variantlar	Maydoni, ming km <sup>2</sup>
1	Namangan	a	6,7
2	Xorazm	b	6,1
3	Farg'ona	c	7,4

- A) 1-b, 2-c, 3-a  
B) 1-c, 2-a, 3-b  
C) 1-b, 2-a, 3-c  
D) 1-c, 2-b, 3-a

**34.** Yevropa davlatlari va ularning qaysi subregionga tegishli ekanligi mos ravishda to'g'ri keltirilgan javobni toping.

Nº	Davlatlar	Variantlar	Subregion
1	Estoniya	a	Sharqiy Yevropa
2	Monako	b	G'arbiy Yevropa
3	Andorra	c	Janubiy Yevropa
4	Serbiya	d	Shimoliy Yevropa


- A) 1-a, 2-c, 3-d, 4-b  
 B) 1-d, 2-b, 3-c, 4-a  
 C) 1-b, 2-a, 3-d, 4-c  
 D) 1-c, 2-d, 3-b, 4-a

35. Geoxronologik jadvalda gersin tog‘ burmalanishida ko‘tarilgan tog‘lar va o‘lkalar to‘g‘ri berilgan qatorlarni toping.

Nº	Ko‘tarilgan tog‘lar va o‘lkalar
1	Sharqiy Sayan
2	Appalachi
3	Filippin orollari
4	Shimoliy Afrika
5	Braziliya yassitog‘ligi
6	Patagoniya

- A) 1, 3, 5  
 B) 2, 4, 6  
 C) 1, 3, 6  
 D) 2, 4, 5

36. Quyidagi rasmda keltirilgan A va B harflari bilan nimalar tasvirlagan?




- A) O‘rta Osiyoning shimoliy (A) va janubiy (B) chekkalarida 22-iyunda quyosh nurlarining tushish burchagi  
 B) O‘rta Osiyoning shimoliy (A) va janubiy (B) chekkalarida 22-dekabrda quyosh nurlarining tushish burchagi  
 C) O‘rta Osiyoning shimoliy (A) va janubiy (B) chekkalarida 21-mart quyosh nurlarining tushish burchagi  
 D) O‘rta Osiyoning shimoliy (A) va janubiy (B) chekkalarida 23-sentabrda quyosh nurlarining tushish burchagi

37. Parij shahri ( $48^{\circ}$  sh. k va  $2^{\circ}$  shq.u)dan g‘arbda joylashgan nuqtada Quyosh chiqishi 3 soat keyin kuzatildi. Ushbu nuqtani qaysi uzunlikda joylashganligini aniqlang.

- A)  $47^{\circ}$  sharqiy uzunlik  
 B)  $28^{\circ}$  g‘arbiy uzunlik  
 C)  $43^{\circ}$  g‘arbiy uzunlik  
 D)  $32^{\circ}$  sharqiy uzunlik

38. Quyidagi chizmadan foydalananib, o‘rtacha yillik haroratni aniqlang.



- A)  $+12,9^{\circ}\text{C}$   
 B)  $+13,1^{\circ}\text{C}$   
 C)  $+13,8^{\circ}\text{C}$   
 D)  $+13,5^{\circ}\text{C}$


39. Namangandagi meteorologik stansiyada oylar bo‘yicha yog‘in miqdori quyidagicha: Yanvar – 24 mm, fevral – 19 mm, mart – 30 mm, aprel – 19 mm, may – 20 mm, iyun – 8 mm, iyul – 6 mm, avgust – 2 mm, sentabr – 4 mm, oktabr – 18 mm, noyabr – 19 mm, dekabr – 19 mm. Ushbu ma’lumotlardan foydalanim Namangandagi yillik yog‘in miqdorini toping.

- A) 179 mm  
 B) 188 mm  
 C) 206 mm  
 D) 197 mm

**40.** “O’lkaning eng baland joyi (8 611 m) Qoraqurum tizmasidagi Chogori cho‘qqisi bo‘lsa, eng past nuqtasi Taklamakon cho‘lidagi To‘rfon botig‘iga (−154 m) to‘g‘ri keladi”. Ushbu ta’rif Yevrosiyoning qaysi tabiiy geografik o‘lkasiga tegishli?

- A) Sharqiy Osiyo
- B) Markaziy Osiyo
- C) O‘rta Osiyo
- D) Old Osiyo

**41.** 2017 yil ma’lumotiga ko‘ra ushbu diagrammaning 3-ustunidagi ko‘rsatkich qaysi viloyatning yalpi ichki mahsulotiga tegishli ekanligini aniqlang (YIMga nisbatan foiz hisobida)?



- A) Farg‘ona
- B) Jizzax
- C) Toshkent
- D) Surxondaryo

**42.** “Aholisining 30 % dan ko‘proq qismi shaharlarda istiqomat qiladi, qolgan qismi esa qishloq aholisiga to‘g‘ri keladi. Mamlakat poytaxti aholisi 2017-yilda 1 mln. kishidan oshib ketdi”. Ushbu ta’rif Markaziy Osiyodagi qaysi davlatga tegishli?

- A) Turkmaniston
- B) Qozog‘iston
- C) Qirg‘iziston
- D) Tojikiston

**43.** Kattaqo‘rg‘on tumanining aholisi 2021-yil holatiga ko‘ra 280 ming kishini, aholi zichligi 201,4 kishi/km<sup>2</sup> ni tashkil qildi. Kattaqo‘rg‘on tumanining maydonini toping.

- A) 1 390,2 km<sup>2</sup>
- B) 1 387,8 km<sup>2</sup>
- C) 1 394,6 km<sup>2</sup>
- D) 1 378,4 km<sup>2</sup>

**44.** Angren shahri aholisining soni 2020-yil 1-yanvar holati bo‘yicha 188,4 ming kishini, 2021-yil 1-yanvar holati bo‘yicha esa 191,3 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, ikki muddat

oralig‘ida aholi soni qanchaga ko‘payganligini toping.

- A) 3,2 ming kishi
- B) 2,9 ming kishi
- C) 2,5 ming kishi
- D) 3,7 ming kishi

**45.** Yevropa Ittifoqiga 2007-yilda qaysi davlatlar a’zo bo‘lgan?

- A) Ruminiya, Bolgariya
- B) Chexiya, Vengriya
- C) Polsha, Slovakiya
- D) Estoniya, Latviya